



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

EGA, FE'L VA GAP ELIZIYASINING TARJIMASIDAGI FARQLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Abdullayeva Sabohat Sodiq qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, magistr

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz tilidagi egali, fe'lli va gapli eliziyaning o'zbek tiliga tarjimasidagi lingvopragmatik farqlarni kundalik og'zaki muloqotdan olingan autentik misollar asosida tahlil qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingliz tilining analitik va o'zbek tilining agglyutinativ morfologik tabiati eliziyaning tarjimasiga bevosita ta'sir qiladi: fe'lli eliziya o'zbek tiliga juda kamdan-kam o'tsa, gapli eliziya har ikki tilda ham faol qo'llaniladi. Tarjimada asosiy strategiya sifatida funksional ekvivalentlik — tuzilishni emas, kommunikativ ta'sirni saqlash — qo'llanilishi zarur.

Kalit so'zlar: eliziya, egali eliziya, fe'lli eliziya, gapli eliziya, funksional ekvivalentlik, tarjima, lingvopragmatika, og'zaki muloqot.

РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ АНГЛИЙСКИМ И УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКАМИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ СУБЪЕКТНОЙ, ГЛАГОЛЬНОЙ И СЕНТЕНЦИОНАЛЬНОЙ ЭЛИЗИИ

Абдуллаева Сабохат Содик кизи

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, магистрантка

Аннотация

Данная статья анализирует лингвопрагматические различия при переводе субъектной, глагольной и сентенциональной элизии с английского на узбекский язык на основе аутентичных примеров из повседневного устного общения. Исследование показывает, что аналитический характер английского и агглютинативная морфология узбекского непосредственно влияют на перевод элизии: глагольная элизия крайне редко переходит в узбекский, тогда как сентенциональная элизия активна в обоих языках. Основной стратегией перевода служит функциональная эквивалентность — сохранение коммуникативного эффекта, а не структуры.

Ключевые слова: элизия, субъектная, глагольная, сентенциональная элизия, функциональная эквивалентность, перевод, лингвопрагматика, устная речь.

DIFFERENCES BETWEEN ENGLISH AND UZBEK IN TRANSLATING SUBJECT, VERBAL AND SENTENTIAL ELISION

Abdullayeva Sabohat Sodiq qizi

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Master's Student

Abstract

This article analyses the linguo-pragmatic differences in translating English subject, verbal, and sentential elision into Uzbek, using authentic examples drawn from everyday oral communication. The study demonstrates that the analytic nature of English and the agglutinative morphology of Uzbek directly affect elision in translation: verbal elision rarely transfers into Uzbek, while sentential elision remains active in both languages. Functional equivalence — preserving communicative effect rather than structure — serves as the primary translation strategy.

Keywords: elision, subject elision, verbal elision, sentential elision, functional equivalence, translation, linguo-pragmatics, oral communication.

Ingliz tilidagi og'zaki muloqot o'zining tabiiy ravishda yuzaga kelishi, tezkorligi va ixchamlikka moyilligi bilan yozma nutqdan tubdan farq qiladi. Bu xususiyatlarning eng yorqin ko'rinishi eliziya hodisasida namoyon bo'ladi, ya'ni tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar yoki butun gap qismlarining kontekst asosida tushirib qoldirilishi. Kundalik hayotda ingliz tilini ona tili sifatida so'zlashuvchi insonlarning suhbatini eshitganimizda, "Are you going?" o'rniga "Going?", "Have you eaten?" o'rniga "Eaten?", "I am fine" o'rniga "Fine" kabi shakllarni bemalol uchratish mumkin. Bu shakllar grammatik xato emas, balki muloqotning tabiiyligidan kelib chiqadi.

Eliziyani o'zbek tiliga tarjima qilish o'ziga xos muammolar tug'diradi, chunki ikkala til tipologik jihatdan katta farq qiladi: ingliz tili analitik, o'zbek tili esa agglyutinativ til hisoblanadi. Shu farq tarjimondan har bir holatda alohida yechim topishni talab qiladi. Baker [1; 25–26-b.] ta'kidlaganidek,

tarjimada strukturaviy ekvivalentlikdan ko'ra funksional ekvivalentlikka, ya'ni kommunikativ ta'sirni saqlashga intilish birlamchi maqsad bo'lishi lozim.

1. Ega eliziyasi va uning tarjimasidagi xususiyatlari

Ega eliziyasi ingliz tilida ega vazifasidagi ot yoki olmoshning kontekst asosida tushirib qoldirilishidir. Halliday va Hasan [2; 142–145-b.] bu hodisani uch turga ajratadi: **deiktik** (*the, this, mine, yours* kabi elementlar), **numerativ** (son ifodalovchi elementlar) va **epitet** (sifat elementlari). Kundalik inglizcha og'zaki muloqotda ega eliziyasi eng tabiiy va keng tarqalgan shakllardan biridir.

1-misol: "Whose jacket is this?" — "Mine."

Tarjima: "Bu kimning kurtkasi?" — "Meniki."

Tahlil: *Mine = my jacket.* "Meniki" shakli o'zbek tilidagi egalik ma'nosi orqali ingliz tilidagi eliziyaning funksional muqobilini hosil qiladi. Har ikki tilda ham qisqa javob muloqotni ixchamlashtiradi.

2-misol: "I ordered two burgers. Did you get yours?" — "Yeah, got it."

Tarjima: "Men ikkita burger buyurdim. Siznikilar keldimi?" — "Ha, oldim."

Tahlil: *Yours = your burger(s).* "Siznikilar" shaklida egalik va ko'plik qo'shimchalari birgalikda deiktik eliziyaning funksional ekvivalentini hosil qiladi.

3-misol: "Which shoes do you prefer — the black ones or the white ones?" — "The white."

Tarjima: "Qaysi tuflilarni yoqtirasiz — qoralarini yoki oqlarini?" — "Oqlarini."

Tahlil: **The white = the white ones.**

O'zbek tilida: **Oqlarini.** Ko'plik va tushum kelishigi qo'shimchalari eliziyani tabiiy ifodalaydi (egaliq guruhidagi eliziya turi).

4-misol: "We need three volunteers. Any more?" — "Just one."

Tarjima: "Bizga uch nafar ko'ngilli kerak. Yana bormi?" — "Bittasi bor."

Tahlil: *Any more = any more volunteers.* O'zbek tilidagi **bittasi** shakli numerativ eliziyaning egalik qo'shimchasi orqali ifodalanishini ko'rsatadi. O'zbek tilining morfologik boyligi aynan shunday vaziyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ega eliziyasi o'zbek tiliga nisbatan muvaffaqiyatli ko'chadi, chunki bunga o'zbek tilidagi egalik, ko'plik va kelishik qo'shimchalari tizimi imkon yaratadi. Qo'shimchalar bir vaqtning o'zida bir nechta grammatik ma'noni ifodalab, ingliz tilida tushirib qoldirilgan elementning vazifasini bajara oladi. Biroq ayrim holatlarda, ayniqsa kontekst yetarli bo'lmagan vaziyatlarda, tarjimon to'liq shakldan foydalanishga majbur bo'ladi.

2. Fe'l eliziyasi va uning tarjimidagi xususiyatlari

Fe'l eliziyasi savol-javob shaklidagi muloqotlarda fe'l guruhining bir yoki bir nechta elementining kontekst asosida tushirib qoldirilishidir. Karter va MakKarti [3; 193–210-b.] ta'kidlaganidek, bu tur ingliz tilidagi og'zaki nutqda juda keng tarqalgan. Biroq o'zbek tiliga tarjimada fe'l eliziyasi eng kam saqlanadigan turlardan biri hisoblanadi. Bu holat o'zbek tilining morfologik tuzilishi bilan izohlanadi.

5-misol: "Have you called the doctor?" — "Not yet, but I will."

Tarjima: "Shifokorga qo'ng'iroq qildingizmi?" — "Hali yo'q, lekin qilaman."

Tahlil: *I will = I will call the doctor.* O'zbek tilidagi **qilaman** shakli to'liq fe'lni talab qiladi. Ingliz tilidagi *will* yordamchi fe'li mustaqil holda qo'llana olsa, o'zbek tilida mazmuni ifodalash uchun fe'lning to'liq shakli zarur bo'ladi.

6-misol: "Did she finish the project?" — "She did, finally."

Tarjima: "U loyihani tugatdimi?" — "Nihoyat tugatdi."

Tahlil: *She did = She finished the project.* O'zbek tilidagi **tugatdi** shakli to'liq fe'l hisoblanadi. Bu yerda fe'lning shaxs-son va zamon ko'rsatkichlari mavjud bo'lgani sababli eliziyani saqlash imkoniyati deyarli yo'q.

7-misol: "Is he coming to the meeting?" — "He is."

Tarjima: "U yig'ilishga keladimi?" — "Ha, keladi."

Tahlil: *He is = He is coming.* O'zbek tilida mazmun **keladi** shakli orqali to'liq ifodalanadi. Zaruratga qarab **ha** tasdiq yuklamasi qo'shilishi mumkin.

8-misol: "Can you drive?" — "I can."

Tarjima: "Mashina haydashni bilasizmi?" — "Bilaman."

Tahlil: *I can = I can drive.* O'zbek tilida: **Bilaman.** Bu shaklda fe'l to'liq ifodalangan bo'lsa-da, **bilaman** so'zi ixcham va tabiiy eshitiladi, natijada funksional ekvivalentlik saqlanib qoladi.

Fe'l eliziyasi tarjimasidagi asosiy muammo o'zbek tilining morfologik tabiatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida **I will, She did, He is** kabi qisqa shakllar yordamchi fe'llar orqali oldingi gapning to'liq mazmunini ifodalay oladi. O'zbek tilida esa bunday mustaqil yordamchi fe'llar tizimi mavjud emas,

har qanday fe'l o'zining shaxs-son ko'rsatkichlarini qabul qilishi zarur. Shu sababli Levinson [6; 284–286-b.] tomonidan tavsiflangan qo'shaloq juftlik nazariyasida savol qismi o'zbek tiliga eliziyani saqlagan holda tarjima qilinishi mumkin bo'lsa-da, javob qismi ko'pincha fe'lning to'liq shaklini talab qiladi.

3. Gap eliziyasi va uning tarjimadagi xususiyatlari

Gap eliziyasi savol yoki javobning butun bir qismining tushirib qoldirilishidir. Bu tur har ikkala tilda ham eng faol va tabiiy shakllardan biri hisoblanadi. Kundalik muloqotda ko'pincha bitta so'z yoki qisqa ibora yordamida to'liq javob beriladi. Grays [4; 41–58-b.] ta'kidlaganidek, agar tinglovchi savol kontekstidan zarur ma'lumotni tiklay olsa, so'zlovchi uni qayta takrorlashi shart emas.

9-misol: “Coffee or tea?” — “Tea, please.”

Tarjima: “Qahva yoki choy?” — “Choy, iltimos.”

Tahlil: Gapning bir qismi tushirib qoldirilgan: *Do you want coffee or tea? → Coffee or tea?*

O'zbek tilidagi **Choy, iltimos** javobida ham gap eliziyasi tabiiy ravishda saqlanib qolgan. Har ikki tilda ham kommunikativ ta'sir bir xil.

10-misol: “Ready?” — “Almost.”

Tarjima: “Tayyormisiz?” — “Deyarli.”

Tahlil: *Ready? = Are you ready?* O'zbek tilidagi **Deyarli** javobi ham gap eliziyasining to'liq saqlanganligini ko'rsatadi. Bu shakl o'zbek og'zaki nutqida ham tabiiy hisoblanadi.

11-misol: “Did you hear about the accident?” — “No, what happened?”

Tarjima: “Halokat haqida eshitdingizmi?” — “Yo'q, nima bo'ldi?”

Tahlil: *No = No, I didn't hear about it.* O'zbek tilidagi **Yo'q** javobi ham gap eliziyasini to'liq saqlaydi. Inkori ma'nosi ingliz tilidagi *No* bilan funksional jihatdan ekvivalentdir.

12-misol: “Where did you park?” — “Out front.”

Tarjima: “Mashinangizni qayerga qo'ydingiz?” — “Old tomonda.”

Tahlil: *Out front = I parked out front.* O'zbek tilidagi **Old tomonda** shakli qisqa javobni grammatik jihatdan yetarli darajada ifodalaydi. Gap eliziyasi saqlanib qoladi.

13-misol: “Eaten yet?” — “Not hungry.”

Tarjima: “Ovqatlaningizmi?” — “Ishtaham yo'q.”

Tahlil: Bu misolda ham savol (*Have you eaten?*), ham javob (*I'm not hungry*) eliziyalashgan. O'zbek tilidagi **Ishtaham yo'q** javobi gap eliziyasini to'liq saqlaydi va hatto tabiiylik jihatidan yanada kuchliroq eshitaladi.

Gap eliziyasining har ikkala tilda ham faol saqlanishi tasodifiy emas. O'zbek og'zaki nutqida ham **Ha, Yo'q, Albatta, Hali yo'q, Deyarli** kabi qisqa javoblar muloqotning eng tabiiy shakllaridan biri hisoblanadi. Bu holat Sperber va Wilsonning [5; 279-b.] relevantlik nazariyasi bilan hamohangdir: tinglovchi minimal lingvistik signal asosida maksimal ma'noni tiklay olgan vaziyatda so'zlovchi ortiqcha nutqiy komponentlardan foydalanishga ehtiyoj sezmaydi. Mazkur tamoyil ingliz va o'zbek tillarida bir xil darajada amal qiladi.

Natijalar

Tahlil qilingan 13 ta misol va ularning tarjima xususiyatlarini umumlashtiradigan bo'lsak, quyidagi jadval umumiy manzarani ko'rsatadi:

Eliziya turi	Ingliz tilidagi xususiyat	O'zbek tilidagi tarjima	Saqlanish darajasi
Egali eliziya	Deiktik, numerativ, epithet elementlar tushiriladi	Egalik, ko'plik, kelishik qo'shimchalari muqobil hosil qiladi	Yuqori (60–70%)
Fe'lli eliziya	Yordamchi fe'l mustaqil tura oladi (will, did, is, can)	To'liq fe'l shakli talab qilinadi — agglyutinativ tabiat sababli	Past (8–10%)
Gapli eliziya	Savol yoki javobning butun qismi tushiriladi	O'zbek og'zaki nutqida ham keng qo'llaniladi — tabiiy ekvivalent	Yuqori (55–65%)

Xulosa

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi ega, fe'l va gap eliziyalari har ikki tilda ham og'zaki muloqotning tabiiy shakli sifatida tarjimada ma'lum darajada saqlanadi. Ega eliziyasi o'zbek tilidagi egalik va shaxs-son ko'rsatkichlari tizimi tufayli nisbatan muvaffaqiyatli tarjima qilinadi. Fe'l eliziyasi esa o'zbek tilining agglutinativ tabiati sababli tarjimada ko'pincha saqlanmaydi, chunki tarjimon mazmunning to'liq va aniq ifodalanishini ta'minlash uchun fe'lning to'liq shaklidan foydalanishga majbur bo'ladi.

Asosiy xulosa shundan iboratki, ingliz tilidagi eliziyani o'zbek tiliga tarjima qilishda strukturaviy

ekvivalentlikni saqlashga intilish ko‘p hollarda imkonsizdir. Shu sababli tarjimon funksional ekvivalentlik tamoyiliga, ya’ni til birliklarining tashqi tuzilishini emas, balki ularning kommunikativ ta’siri va mazmunini saqlashga tayanishi zarur. Mazkur yondashuv, ayniqsa, fe’l eliziyasini tarjima qilishda kommunikativ ta’sirni saqlab qolish hamda nutqning tabiiyligini ta’minlash imkonini beradi.

Ushbu maqola natijalari ingliz tilini EFL (English as a Foreign Language) sifatida o‘qitishda eliziyani tilning me’yoriy va funksional hodisasi sifatida o‘rgatish zarurligini, tarjimonlik amaliyotida esa ingliz–o‘zbek tarjimalarida funksional ekvivalentlik tamoyiliga tayanish lozimligini tasdiqlaydi. Kelgusida turli janrlar va kommunikativ vaziyatlarga oid og‘zaki nutq namunalari asosida keng qamrovli korpus tadqiqotlarini amalga oshirish ushbu sohadagi ilmiy bilimlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. – London: Routledge, 2011. – 365 p.
2. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – P. 142–145.
3. Carter R., McCarthy M. Cambridge Grammar of English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 193–210.
4. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. – New York: Academic Press, 1975. – Vol. 3. – P. 41–58.
5. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. – Oxford: Blackwell, 1986. – 279 p.
6. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 284–286.